

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

TARIX FAKULTETI

“O'zbekiston tarixi” kafedrası

REFERAT

**MAVZU: G`AZAVIYLAR DAVLATIDA IJTIMOIIY, MADANIY HAYOT
VA DAVLAT IDORA TARTIBLARI**

**BAJARDI: Rajabov Husan Tarix yo`nalishi
II kurs talabasi**

ILMIY RAHBAR: t.f.n. X.Qurbonov

Navoiy 2013

Annotatsiya

Ushbu referatda Gʻaznaviylar davlatining tashkil topishi, Gʻaznaviylar davlatida boshqaruv tizimi, Gʻaznaviylar ning davlatining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari va madaniy hayoti vasalalari yoritilgan.

MAVZU: GʻAZAVIYLAR DAVLATIDA IJTIMOIIY, MADANIY HAYOT VA DAVLAT IDORA TARTIBLARI

Reja:

KIRISH

- 1. Gʻaznaviylar davlatining tashkil topishi**
- 2. Gʻaznaviylar davlatida boshqaruv tizimi**
- 3. Gʻaznaviylar ning davlatining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari va madaniy hayoti**

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O`zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi...
Tarixiy xotirasi bor inson-irodali inson...
Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o`rgatadi, irodasini mustahkamlaydi¹
Islom Karimov

KIRISH

VII asrning o`rtalarida arablarning mamlakatimizga tahdidi jiddiy tus oldi. Sosoniylardan bo`lmish Yazdigar III ni quvib kelgan arablar 651 yili Marvni egallaydilar. Shundan keyingi 60 yildan ortiq vaq mobaynida ular mintaqaning boshqa yirik markazlarini ham bosib olishga xarakat qiladilar. Faqat VIII asrning boshlariga kelibgina arablar birin-ketin Xorazm, Buxoro, Samarqand, Shosh va Farg`ona kabi erlarni buysundira oldilar<sup>1</sup>. Albatta, arablarning mazkur muvaffaqiyati yurtimiz shahar-qshloqlarini talash, Vatan himoyasiga otlanganlarni qirish, asrlar davomida yaratib kelingan turli va ko`plab madaniy-ma'naviy obidalarni (yozma manbalar, ibodatxonalar va xokazo) yakson qilish orqali amalga oshirilgan edi. Chunonchi, arablarning Xorazmga bosqinini ta'riflab Abu Rayxon Beruniy shunday yozgandi: «(arab lashkarboshisi) Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ular-ning xabar va rivoyatlarini (ya'ni tarixini — A. 3.) o`rgangan va bilimini boshqalarga o`rgatadigan kishilarni xalok etib, butkul yo`q, qilib yuborgan edi»<sup>2</sup>. Shu tariqa o`lkamiz milodiy 1-mingyillikda ilk bor tashqi tajovuzkor domiga tushib, evdi Arab xalifaligiga qaram bo`lib qoldi. Demak, siyosiy mustaqillik, o`z yurtida davlatni boshqarish erki yo`qoldi.

Islom ta'limoti asosida mafkuraviy jihatdan jamiyatda bir butunlikka erishilganini xisobga olmaganda bu galgi erkni yuqotish ham ajdodlarimiz uchun qimmatga tushdi. Madaniy taraqqiyot nuqtai nazaridan ancha orqda bo`lgan arablarning uzoq asrlardan beri har taraflama obod va farovon o`lkaga munosabati bundan kam yo ortiq bo`lishi mumkin ham emasdi. Shu munosabat bilan ilmiy va boshqa doiralarda uchrab turadigan «o`rta asr arab madaniyati (tsivilizatsiyasi)» qabilidagi tushunchalardan (aslida esa tushunmovchiliklardan) voz kechish payti keldi, deb o`ylaymiz. Zero, yagona mafkura va ma'lum davrgacha arab tili

¹Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T.: “Sharq”, 1998 yil, 9-bet

xukmronligini hisobga olmasa, bu davr fan va madaniyati mohiyat e'tibori bilan turonliklaru eronliklar sa'y-harakati ila jonlanib kelgan.

Mana shunday bir sharoitda Markaziy Osiyo hududida davlatchiligimiz tarixida chuqur iz qoldirgan yangi bir davlat somoniylar davlati vujudga keldi. Somoniylar davlati o'zining ijtimoiy –iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayoti bilan tariximizda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ularning davrida mamlakatimiz hududida rivojlanish, ilg'or taraqqiyot, moddiy va ma'naviy yuksalish jarayoni yanada kuchaydi.

1. G`AZNAVIYLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI

G`aznaviylarning siyosiy kuch sifatida yuzaga kelishi va yuksalishi masalasida ham biz sovet tarixshunosligidagi mavjud ba'zi bir qarashlarni qabul qila olmaymiz. Chunki ilgari g`aznaviylarni (demak, ularning zamonini ham), asosan, salbiy tomondan ko'rsatishga intilib kelingan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunonchi, bu sulola asos topgan G`azna viloyati «isyonkor turk lashkarboshilari»ga boylik orttirish uchun qulay joy sifatida sharhlanib, o'z-o'zidan shu erda kuchga kirgan va mazkur shahar (viloyat) nomila tanilgan g`aznaviylar sulolasi tarixi ham go'yo xuddi shunday maqsad yo'lida yuzaga kelgan va faoliyat ko'rsatganday bayon etilgan ².

Aslida esa tarixiy voqelik sabablari bir nechta.

Birinchidan, Ismoil Somoniydan keyin somoniylar orasidan har jihatdan etuk, yuqori darajada siyosat yurgiza oladigan arbob etishib chiqqani yo'q. Buning oqibatida somoniylar o'z ichki, ya'ni sulolaviy imkoniyatlaridan ko'ra ko'proq mavjud siyosiy qonun-qoidalariga bog'liq, bo'lib qilganlar. Siyosiy muhitni esa bu vaqtda nufuzli lashkarboshilarsiz tasavvur qilib bo'lmasdi. G`azna viloyatidagi kuchlar siyosiy faolligining oshishi va borib-borib aloadda bir sulola darajasiga ko'tarilishi ham xuddi shunday yirik lashkarboshilar nomi bilan bog'liq, bo'lganini biz quyida yaqqol ko'ramiz,

² Qarang: История Узбекской ССР. (книга первая) Т.: 1982. с. 246

Ikkinchidan, Turkiston mintaqasida siyosiy taraqqiyotning o'ziga xos tomonlaridan biri-bu davrda xuddi madaniy hayotdagi kabi bir qator o'ziga yarasha kuchli davlat arboblarning, siyosiy sulolalarning yuzaga chiqishidir. Gap shunday holning yaxshi-yomonligida emas, oqibatlaridan qat'iy nazar, shunday vaziyat sodir bo'lgan va bu bilib qo'yilsa har jihatdan foydalidir.

G'aznaviylar sulolasi qandaydir «o'ljaparastlik» ketidan emas, balki mintaqada kechgan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar muhitida yuzaga kelganligiga doir guvohliklar manbalarda etarli darajada topiladi. Yuqorida biz somoniylar saroyida yirik lashkarboshilar tutgan mavqe haqida aytib o'tgandik. 961 yili somoniy hukumdor Abdumalik o'limidan so'ng vazirlar taxtga marhumning o'g'lini o'tqazadilar. Bunga, manba tili bilan aytganda, «Somoniyilar xonadoni uchun maqtovg'a loyiq, xizmatlar qilib kelgan hamda noiblik va lashkarboshilik yo'lini tutgan» Alptegin qarshilik qiladi³. Shu tariqa davlat arkonlari va Alptegin o'rtasidagi muholiflik ko'chayib avjiga chiqadi. Lashkarboshi Buxoroni tark etadi. Xatto shundan keyin ham ziddiyatlar tugamay, oxirida Alptegin va Buxoro qo'shinlari o'rtasida to'qnashuv sodir bo'lib, buxorolik lashkar mag'lubiyatga uchraydi. Somoniylar xonadoni va Movarounnahr bilan aloqani uzgan Alptegin G'azna viloyatida o'z hukmronligini o'rnatadi. Uning vafotidan (963) so'ng G'aznada navbati bilan Amir Ishoq ibn Alptegin, Amir Bilgategin, Amir Piri, Amir Sabuqteginlar xukmronlik qilishadilar⁴. G'aznaviylar siyosiy sulolasiga asos solgan ham aslida ana shu Sobuqtegin bo'ladi. Shu bilan birga G'aznaning mintaqasi siyosiy markazlaridan biriga aylanishida birinchi salmoqli qadamni Alptegin qo'yganini ham esdan chiqarmaslik kerak.

Zikr qilinganidek, Alptegin somoniylar bilan alohoni o'zgan bo'lishiga qaramay, somoniylar G'aznada mujassamlashgan va quloq yoyib borayotgan siyosiy-harbiy kuchga doimo ehtiyoj sezib kelganlar. Buning yaqqol isbotini Sobuqtegin va somoniy Nuh III (976—997) o'rtasida Kesh atrofida bo'lib o'tgan uchrashuv (bunda Sobuqtegin Nuhni qo'llab-quvvatlashi haqida va'da bergan), yo

³ Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.: "Sharq", 2001. 114-bet.

⁴ Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.: "Sharq", 2001. 114-bet.

bo'lmasa 994 yili somoniylarning eng ashaddiy dushmanlaridan Abu Ali Simjuriyning tor-mor etilishida Sobuqtegin tutgan asosiy o'rin orqali ko'rish mumkin. Sobuqteginning obro'-e'tibori so'nggi yillarda shu darajada yuqori bo'lganki, u «dinu davlat himoyachisi (Nosir ad-din va ad-davla)» faxriy unvoni bilan mashhur edi⁵.

G'aznaviylarning ham rasman, ham amalan siyosiy kuch sifatida tan olinishi 996 yilga to'g'ri keladi. Yuqorida ko'rib chiqilganidek, qoraxoniylar bir necha marta Buxoroga tahdid soladilar. Tilga olingan yili esa Sobuqtegin somoniylarni Qoraxoniylar «changali»dan saqlab qoladi. Somoniy Nuh III raqib oldidagi zaifligini sezgan holda unga murojaat qiladi. Sobuqtegin esa Buxoroni qo'lga olib, Qoraxoniylar bilan kelishuvga imzo chekadi. Bunga ko'ra Amudaryodan janubda joylashgan barcha viloyatlar Sobuqteginning nomiga muhrlanadi. Uning vafotidan (997) keyin avvaliga taxtga bir oz muddat uning o'g'li Ismoil va 998 yildan esa boshqa farzandi Maxmud chiqadi. G'aznaviylar qudrati va shuhratini oshirgan hukumdor ham aslida ana shu Maxmud hisoblanadi. Chunonchi, uning hukmronligi davrida (998—1030) Xorazm, Xuroson, Seyiston, Kobul, G'azna, Shimoliy Hindiston kabi viloyatlar va makonlar g'aznaviylar izmida bo'lgan. Mahmudning o'limidan so'ng taxtga uning o'g'li Muhammad o'tiradi, vaholanki, undan katta o'g'li (Mas'ud) ham bor edi. O'sha zamonda yozilgan manbalar sharhiga ko'ra, Mahmud taxtni kichik o'g'li Muhammadga vasiyat qilish bilan birga, unga «Akan Mas'ud bilan qarama-qarshilikka borma, agar u senga qarshi chiqsa, urushib yurma, (bekor) nobud bo'lasan», degan. Xa-qiqatan ham tez orada Mas'ud va Muhammad o'rtasida muholifat yuzaga keladi. Mas'udning Muhammaddan ustun bo'lganligini zamondosh tarixchilar ham tan oladilar. Xullas, shu yilning o'zidayoq Mas'ud taxtni egallaydi.

Ilgarilari ham ko'p marta ko'rganimizdek, odatda, biron-bir sulola tarixida muayyan ma'noda bekamu ko'st, doimo «oshig'i olchi» siyosatchi tarix sahnasiga bir marta chiqdi. G'aznaviylar ham bundan mustasno emasdilar. Shuning uchun ham Mas'ud davri (1030—1041) asosan Mahmud sa'y-harakatlari bilan qo'lga

⁵ Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.: "Sharq", 2001. 115-bet.

kiritilgan natijalarni saqlab qolish yoʻlidagi urinishlar yillari boʻldi, desak toʻgʻri boʻladi. Birinchidan, 1034 yili Xorazm gʻaznaviylar taʼsir doirasidan chiqdi. Ikkinchidan esa Xurosonda boshqa bir siyosiy sulola - saljuqiylarning kuchayib borishi ham xuddi mana shu Masʼud davriga toʻgʻri kelgan. 1035 yilgi kelishuvga binoan Masʼud saljuqiylarga (Yabgʻu, Toʻgʻril, Dovud boshliq qabilalarga) Niso, Farova, Dehiston viloyatlarini maskan va yaylov sifatida berishga majbur boʻladi, Vaqt oʻtishi bilan kuch-qudrat orttirgan saljuqiylar 1038 yili Nishopurni egallaydilar. Shu yilgi Saraxs atrofidagi Masʼud bilan jangda magʻlub boʻlishlariga qaramay, koʻp oʻtmay — 1040 yili Marv va Saraxs oraligʻidagi Dandonokonda saljuqiylar gʻaznaviylarga chunonam zarba beradilarki, shundan soʻng Sobuqtegin avlodlari oʻzlarini oʻnglay ololmaydilar⁶. Xuroson qoʻldan ketadi, Garchi Masʼud oʻgʻli Mahmud (1041—1049) oʻz xonadonining ilgarigi mavqeini tiklashga uringan boʻlsa-da, buning uddasidan chiqolmagan. Chunki fursat qoʻldan ketgandi. Gʻaznaviylar bundan buyon faqat Gʻazna viloyati va Shimoliy Hindistondagina hukm yurgizishga qodir bir hududiy sulolaga aylanib qolganlar. Biroq nima boʻlganda ham 1187 yilga qadar ular oʻz faoliyatlarini toʻxtatganlari yoʻq. Mahmuddan soʻng sulolaga navbati bilan Ali, Abdurashid, Ibrohim, Masʼud II, Arslonshoh, Bahromshoh, Xisravshoh, Xisrav Maliklar etakchilik qilganlar.

2. GʻAZNAVIYLAR DAVLATIDA BOSHQARUV TIZIMI

Gʻaznaviylar davri boshqaruv tizimi oʻzining murakkabligi bilan diqqatni jalb etadi. U koʻp jihatdan somoniylar, qoraxoniylar zamonidagi davlat boshqaruvi tizimlariga yaqin va oʻxshash. Bu tabiiy hol. Chunki ilgari ham taʼkidlab oʻtganimizdek, har qanday boshqaruv tizimi (shakli) mavjud ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va maʼnaviy-madaniy sharoitga bogʻliq, boʻladi. Boshqa tomondan esa Gʻaznaviylar hukmronligi ostida boʻlgan Xuroson, Seyiston, Kobul, Gʻazna kabi viloyatlar mintaqaniig ajralmas tarkibiy qismlari boʻlib kelganliklarini nazarda

⁶ Azamat Ziyo. Oʻzbek davlatchiligi tarixi. T.: “Sharq”, 2001. 116-bet.

tutsak, boshqaruvchilik taraqqiyotidagi o`xshashliklar, yaqinliklar sababi ma'lum bo`ladi.

Demak, boshqaruv tizimining markazida dargoh va devonlar (vazirliklar) turgan. Avvallari ham ko`rilganidek, dargohga oliy hukmdor (G`aznaviy hukmdorlar «Amir» unvoniga ega bo`lganlar) hayoti va faoliyati bilan aloqador xizmatlar, amallar kirgan. Ular orasida «hojiblik» xizmati alohida e'tiborga loyiq. G`aznaviy davri bo`yicha manbalarda biz hojiblikning quyidagi shakllariga duch keldik: ulug` hojib, saroy hojibi, navbatchi hojib, hojib-jomador» Ulug` hojib nafaqat boshqa hojiblar orasida, balki umuman mamlakat va davlat hayotida alohida mavqega ega bo`lgan. Bunga ishora beruvchi bir necha misollar keltiramiz. Mahmudning o`limidan keyin Muhammadning taxtga o`tirishiga bosh-qosh bo`lgan va qisqa muddatga bo`lsa-da, boshqaruv ishlarini o`z ixtiyorida mujassamlashtirgan ham ulug` hojib Ali Qarib bo`ladi. Rasmiy marosimlarda ulug` hojib oliy hukmdorga eng yaqin joyni egallagan. Unga g`oyat muhim vazifalar yuklatilgan. Katta ahamiyat kasb etuvchi janglarda ulug` hojibga qo`shinning eng salmoqli va mas'uliyatli qismiga boshchilik qilish vazifasi yuklatilgan. Masalan, oliy hukmdor markazni boshqarsa, sipohsalor o`ng qanotga, ulug` hojib esa chap qanotga qo`mondonlik qilgan. Ulug` hojib o`ta jiddiy harbiy yurishlar, maxsus saralangan qismlarni tekshirish, ta'minotini joyiga qo'yish tadbirlarida ham faol bo`lgani ma'lum. Oliy hukmdor va ulug` hojiblararo munosabatlar nechorlik bo`lganligini shundan ham ko`rish mumkinki, Mas'ud ulug` hojib Ali Qaribga yo`llagan bir maktubida unga «fozil (ulug`) hojib, birodar» deb murojaat qiladi<sup>7</sup>. Saroy hojibining vazifasi tushunarli — u saroy eshikog`asi bo`lgan.

Xojibga kelsak, fikrimizcha, hojiblik, umuman olganda, qandaydir bir ijtimoiy-siyosiy tabaqa sifatida ko`proq namoyon bo`ladi. Faraz qilish mumkinki, o`z davri uchun hojiblik ritsarlik tushunchasiga yaqin bo`lsa ajab emas. Masalan, manbalarda shunday ma'lumotlarga ham duch kelamizki, ular kengroq mulohaza qilinsa, mazkur faraz beasos emasligi ravshan bo`ladi. «Tarixi Mas'udiy»da o`qiymiz: «Amir Abdurazzoq... viloyat amirligi xal'atini kiydi... Uning ikki

⁷ Azamat Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi. T.: «Sharq», 2001. 117-bet.

g'ulomiga esa kora (chakmon) berdilar, hojiblik uchun». «Xojib Badr va hojib Erteginlarga ikkita qimmatbaxo xal'at berdilar. Badrga ulug' hojiblik (xal'ati), Erteginga esa g'ulomlar boshlig'i (xal'ati) berildi». Xojiblar bir vaqtning o'zida shihna yo sipohsalor mansabiga ega bo'lganlarini ham eslatib o'tish joizdir. (Xojiblar odatda kora chakmon va ikki uchli quloh kiyib yurganlar.)

Dargoh faoliyatida sipohdor (saroy xizmatchisi), davotdor (oliy hukumdor shaxsiy hujjatlari, yozuv-chizuvi bilan bog'liq, ishlarga bosh-qosh xizmatchi), pardador (mahram, sir saqlovchi, pinhona vazifalarni bajaruvchi), martabador (saroydagi o'rta darajadagi amaldor), farrosh (saroydagi kichik xizmatchilardan), xazinachi, jomaxona (kiyim-kechak saqlanuvchi xona) boshlig'i kabi mansab va xizmatlarning ham o'z o'rnini bo'lgan.

Devonlar (vazirliklar) ijroiya idoralari bo'lganligi o'z-o'zidan tushunarli. Manbalarda bunday devonlardan beshtasining nomi tilga olinadi: Vazir devoni, ya'ni bosh vazir devoni harbiy ishlar devoni; (diplomatik va boshqa rasmiy tadbirlar, hujjatlarni rasmiylashtirish, tuzish devoni; hisob-kitob, ya'ni moliya devoni pochta-xabar devoni. Mazkur devonlarning vazifalari haqida ilgari ham so'z yuritganimiz uchun bu borada yana to'xtalib o'tirmaymiz. Garchi manbalarda mushriflik (davlat nazorati), muxtasiblik devonlari tilga olinmasa-da, ammo joylarda shunday xizmatlar mavjudligidan ularning markazii devonlari ham bo'lgan, degan xulosa chiqadi (masalan, shahar mushrifi, viloyat mushrifi mansablari bo'lganligi).

Viloyat boshlig'ini voliy deganlar va uni oliy hukumdor tayinlagan. Viloyat ijroiya boshqaruv ishlarini amid olib borgan. Shahar boshlig'ini rais deb ataganlar. Shahar miqyosida shihna, kutvol (qal'a komendanti), sohibi devon (ma'muriy boshqaruvchi) kabi amaldorlar ham faoliyat ko'rsatganlar.

Bilamizki, G'aznaviylar, ayniqsa, Mahmud davrida qudratli qo'shinga ega bo'lganlar. Oliy kumondonlik hukumdorning o'z ixtiyorida bo'lganligi tabiiy. Bosh qo'mondonlikka (sipohsalor) esa sulolaning eng ishonchli, asosan, shu xonadon namoyandasi tayinlangan. Masalan, Mahmud bunday mansabga ukasi Muhammad Yusufni loyiq, topgan. Yuqori darajadagi harbiy lashkarboshilar salor,

o`rta darajadagilari sarhang deyilib, oxirgilari hayllarga (bir necha o`n otliqlarga) boshchiliq qilganlar. harbiylar o`z pochta, qoziliq xizmatlariga ega edilar. G`aznaviylarning ham saralangan jangovor qismlari (gvardiya) bor edi, ammo ular to`g`ridan-to`g`ri dargoh ixtiyorida bo`lgan.

G`aznaviylarning tashqi aloqalari masalasida ikki narsaga e`tibor berish lozim: ularning mintaq hududidagi munosabatlari va mintaqadan tashqaridagi aloqalari. G`aznaviylarni mintaqaning Movarounnahr, Farg`ona, Ettisuv, Sharqiy Turkiston qismlarida hukmron bo`lgan qoraxoniylar bilan munosabatlari haqida yuqorida bir qadar to`xtalib o`tgandik. 1001 yilgi Mahmud G`aznaviy va Nasr Qoraxoni o`rtasidagi kelishuvga binoan Amudaryo ikki tomon manfaatlarini ajratib turuvchi chegara hisoblangan.

Garchi bu ahdnoma keyinchalik bir necha marta (asosan Qoraxoniylar tomonidan) buzilib turgan bo`lsa-da, umuman olganda, daryo ikki tomon uchun chegara bo`lib qolavergan. Buning sababini quyidagicha tushuntirish mumkin. G`aznaviylar uchun xuddi o`zlari kabi kuchga to`lib turgan Qoraxoniylar bilan munosabatlarni keskinlashtirishdan ko`ra Xorazm va Shimoliy Hindistonni buysundirish ham real, ham moddiy jihatdan ancha nafli edi. Buni shundan ham bilib olsa bo`ladiki, Maqsudning o`zi Shimoliy Hindistonga bir necha marta efrbiy yurish uyushtirgan, Xorazmni bo`ysundirgan (1017 yili)<sup>8</sup>. Shu ma'noda Maxmud ko`proq uzoqni o`ylaydigan, mintaqadagi umumiy siyosiy vaziyatni yaxshi biladigan siyosatchi sifatida gavdalanadi. Ham hududiy, ham siyosiy-harbiy, iqtisodiy jatlardan o`ziga yarasha qudratga ega bo`lgan Qoraxoniylar bilan birdaniga keskin siyosat yurgizish kalabinlik bo`lardi. Shimoliy Hindistonda, keyinchalik Xorazmda erishilgan siyosiy-harbiy yutuqlardan so`ng esa g`aznaviylar qoraxoniylar bilan nafaqat tengma-teng raqobatlasha oladigan, balki ulardan ustunroq mavqega ham etishadilar.

Saljuqiylar bilan munosabatda ham Mahmud uzoqni ko`zlab ish tutadi. Garchi bu vaqtda saljuqiylar etuklik darajasidan yiroq bo`lsalar-da, lekin umuman jiddiy harbiy kuch sifatida Xurosonga xavf tug`dirishlari mumkin edi. Ayniqsa,

⁸ Azamat Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi. T.: "Sharq", 2001. 120-bet.

Madmudning Shimoliy Hindistonga uyushtirgan yurishlari chog`ida bunday xavf voqelikka aylanishi ehtimolga yaqin bo`lgan. Shuning uchun ham u 1025 yili turk-o`g`iz urug`laridan bir qismiga (to`rt ming chodir) Xurosondan manzil beradi⁹. Keyinchalik Mas'ud davrida ular ko`chayib, g`aznaviylarga qaqshatg`ich zarba beradilar.

Shimoliy Hindiston bilan aloqalarga kelsak, sovet tarixshunosligida bu o`lkaga nisbatan g`aznaviylar tutgan siyosat bosqinchilik, o`ljaparastlik, talon-torajlik xatti-harakatlari orqali tushuntirib kelingan. Fikrimizcha, bunday yondashuv ko`p ham to`g`ri emas. Chunki Shimoliy Hindiston, birinchidan, o`z davrida mintaqaning tarixiy tarkibiy qismi bo`lgan. Ikkinchidan, markazlari G`azna bo`lgan g`aznaviylar uchun Shimoliy Hindiston qo`shni o`lka bo`lgani tabiiy. Xuroson yo Seyistonga nisbatan ularning intilishlari va umuman siyosatlari qanchalik tabiiy bo`lsa, Shimoliy Hindistonga nisbatan ham shunday edi. Uchinchidan, g`aznaviylar ta'sir doirasida bo`lgan Shimoliy Hindistondagi mahalliy sulolalar, siyosiy kuchlarning mustaqillikka intilishlari, ularga qarshi kurashish, qarshilik ko`rsatishlari ham oddiy hol bo`lgan. Shularni nazarda tutgan holda g`aznaviylarning Xorazm yo Shimoliy Hindistonga harbiy yurishlarini o`sha davr siyosiy, iqtisodiy, xalqaro munosabatlari orqali baolash maqsadga muvofiq bo`ladi. Albatta, biz har doimdagidek to`kilgan qon va qurilgan talafotlarni oqlay olmaymiz.

G`aznaviylarning mintaqadan tapharidagi aloqalari haqida so`z ketsa, Arab xalifaligi bilan munosabatlar to`g`risida to`xtalishga to`g`ri keladi. G`aznaviylar shu zamonga kelib ilgarigi qudratini yo`qotgan xalifalik hurmatini o`rniga qo`yishga harakat qilganlar. Zero, bu ularning manfaatlariga mos kelar edi. Ya'ni, birinchidan, Arab xalifaligi shunchalar zaif ediki, mintaqadagi biron-bir siyosiy sulola (masalan, qoraxoniylar, xorazmshohdlar va g`aznaviylarning o`zlari ham) uni real qudrat sifatida tan olmasdi. Demak, xalifalik tomonidan g`aznaviylarga qarshi harbiy xavf-xatar yo`q edi. Aksincha, Mas'udning tili bilan aytganda, «Agarda xalifalik dargohiga hurmatimiz bo`lmaganda edi, nochor Bag`dodga

⁹ Azamat Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi. T.: "Sharq", 2001. 120-bet.

otlanib haj yo`lini holi qilib qo`yardik... Agar otamiz qazo qilmay, Xurosonga qaytishga majbur bo`lmaganimizda, albatta, butun Misr va Shomda (ham hukmron) bo`lardik». Ikkinchidan, mintaqaning o`zida ham g`aznaviylarning raqobtlari etarli edi. Yana bir, hatto zaif, ammo ochiqan-ochiq, dushman orttirish ortiqchaligi tushunarli. Uchinchidan, Arab xalifaligining mintaqaga qo`li etmasa ham, «tili» etardi. Ya'ni mintaqadagi siyosiy kuchlarni bir-biriga gij-gijlash, fisqu-fasod urug`larini sochish uning siyosatiga aylanib qolganini biz somoniylar davrida dam ko`rgandik. G`aznaviylar esa xalifalikka «hurmat» bilan qarab, o`zlariga nisbatan har qanday buzg`unchilik harakatlarini bartaraf etdilar va hatto undan raqiblariga qarshi foydalanish imkonini dam chetga surib qo`ymadilar.

Tashqi aloqalar haqida so`zni xorijiy medmonlarni qabul qilish marosimiga oid quyidagi lavha bilan tugallasak. Bayon 1032 yilda Mas'udning Arab xalifaligining oliymaqom elchisini qabul qilishi haqida. «Tong yorisha boshlagan zamon to`rt ming saroy g`ulomi (ya'ni gvardiya) amirlik saroyining ikki tarafidan bir necha qator bo`lib saf tortdilar. (Shunday) ikki ming nafari ikki uchli qo`lod (kiyib) va o`nta popugi (osilib turgan) kamar (taqib) olgandilar. Har bir g`ulom kumush gurzi (tutib turardi). Qolgan ikki ming (g`ulom) to`rtta par qadalgan kulohda edilar. Bellaridagi kamarga o`qdon, qilich, kamonni tutib turuvchi qayish mahkamlangan, dar bir g`ulomning qo`lida kamon va uchtdan o`q. Barcha (to`rt ming g`ulom) qimmatbaho nafis ipaklikdan (tikilgan) chakmonda edi. Xos g`ulomlardan uch yuztasi amir (ya'ni oliy hukmdor) o`tirgan supa yaqinida har tomondan saf tortib turardilar. Ularning kiyimlari yanada ko`rkam (bo`lib) (boshlarida) ikki uchli kuloh, kamarlari zardan, gurzilari ham zarrin. (Oralaridan) bir necha kishining kamarlari javodirlar bilan bezatilgandi. Yana ellik-oltmish nafar (g`ulom) nariroqda Dilmon saroyi o`rtasida qalqon bo`lib turardilar. Dargoh ulug`lari, viloyatlar voliyarlari, hojiblar-barchasi ikki uchli kulohda, zar kamarlar taqib olganlar. Saroy tashqarisida martabadorlar turardilar. Fillarning soni ko`p edi, Lashkar esa shay bo`lib, qimmatbaho nafis ipaklik kiyimda, soyabonlar (ostida), (har bir qism) o`z qurol-yarog`i, belgilari bilan bir-birlariga qarama-qarshi tomonlarga saflangandilar, (xuddi) shular orasidan elchi o`tishi kerak edi. Elchini

boshlovchi bezatilgan otlarni olib ko'pchilik hamroxligida (tashqariga qarab) yuradi. (U erda) elchini otga mindiradilar. (So'ng) uni boshlab keldilar. (Shunda) burg'u, katta-kichik nog'oralar ovozi yangrab ketdiki, go'yo qiyomat kuni kelganday (deysan kishi). Elchini ana shunday ulug'vor takalluf bilan kuzatib bordilar. Bunday (qabul marosimini) u umrida ko'rmagandi. G'oyatda hayratga tushgan holda u ko'shkka qadam qo'ydi. Amir (ya'ni oliy hukumdor), Olloh undan rozi bo'lsin, supa oldida taxtda o'ltirardi. Xalifa elchisi salom berdi. U qora (kiyimda) edi. Javobni ulug' xoja Ahmad Xasan berdi. Amir yonida undan bo'lak hech kimsa o'tirmagandi. Qolgan barcha tik turardi. Xojib Abu Nasr elchining tirsagidan tutib o'tirishga undadi...»¹⁰.

3. G'AZNAVIYLAR NING DAVLATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ASOSLARI VA MADANIY HAYOTI

G'aznaviylarning mintaqa madaniy hayotida tutgan roli haqida gapirarkanmiz, XI asr fan va madaniyati taraqqiyoti va olamshumul yutuqlarida ular xukmfarmo bo'lgan makon va zamonning o'рни katta bo'lgan. Albatta, buning sababini eng avvalo mintaqaning an'anaviy fan va madaniyat o'chog'i bo'lib kelganligi bilan bog'lash mumkin. Shu bilan birga, fikrimizcha, bunda g'aznaviylar sulolasi namoyandalarining mazkur sohaga bo'lgan munosabatlari, shaxsiy imkoniyatlari omili ham kam o'rin tutmagan. Chunonchi, Mahmud G'aznaviy ona tilisi turkiydan tashqari fors, arab, hatto pahlaviy tillarini ham mukammal bilgan, she'r bitgan. Shuning uchun ham bo'lsa kerak Mahmud va umuman g'aznaviylar hukmronlik qilgan markazlar o'z davrining madaniy muhitida eng oldingi o'rinlarda turganlar. Farruxiy, Unsuriy, Manuchehriy, Utbiy, Gardiziy, Bayhaqiy, Nosir Xisrav kabi mashhur shoirlar, tarixchilar, olimlar g'aznaviylar homiyligida faoliyat ko'rsatganlar. Buyuk ajdodimiz Abu Rayxon Beruniy ham G'aznaviylar saroyida ilm bilan shug'ullanib o'zining ko'plab mashhur asarlarini, jumladan, «Hindiston», «Geodeziya», «Xorazmning mashhur kishilari», «Mas'ud qonuni», «Mineralogiya», «Saydana»ni G'aznada yozgan.

¹⁰ Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.: "Sharq", 2001. 122-bet.

Gʻaznaviylar bilan yana bir mashhur madaniyat arbobining nomi borliq. Soʻz Abulqosim Firdavsiy haqida. Fors adabiyotining daho shoirlaridan hisoblanmish Firdavsiy hammaga maʼlum «Shohnoma» asarini oʻttiz yildan ortiq vaqt ichida yozib tugatib, oʻsha zamon tartib-qoidalariga koʻra davr sultoni Mahmudga taqdim etadi. Mahmud bu ulkan sheʼriy asar (60 mingdan ziyod baytdan iborat) uchun taomilga koʻra shoirni taqdirlashi va hurmatini oʻrniga qoʻyishi kerak edi. Ammo u bunday qilmaydi. Baʼzi bir adabiyotlarda buning uchun Mahmudni qoralash qonun tusiga kirib qolganligini nazarda tutib, bu masalaga ravshanlik kiritishga harakat qilaylik. Firdavsiy oʻz xalqi farzandi va kuychisi sifatida tabiiy ravishda Eronzamin va eron xalqni madh etadi. Va bunda eronliklarning tarixi va fazilatlari (donoligi, shijoati va hokazo) masalasini yoritishda ularga turonliklarni qarshi qoʻyadi. Bugungi kun tili bilan aytganda asarda turonliklar salbiy «qahramonlar» sifatida gavdalanadilar. Turkiynasab hukumdor sifatida Mahmud buni qabul qilolmasligi tabiiy edi. Qaysi hukumdor oʻz xalqiga qarshi ruhda bitilgan asarni taqdirlagan? Bundayi yoʻq,. Shuning uchun bu borada Mahmudni ayblash tarixiy xaqiqatga va umuman mantiqqa ziddir.

Gʻaznaviylar davrida qurilish, maʼrifiy ishlarga ham katta eʼtibor berilgani maʼlum. Gʻazna, Balx, Nishopur, Shimoliy Hindiston shaharlarida madrasalar, masjidlar, xonaqoxlar, saroylar koʻplab qurilgani manbalarda oʻz aksini topgan. Madrasalarda turli sohadagi fanlardan dare berilgan, ilmi toliblar uchun oʻz zamonasida boy hisoblangan kutubxonalar eshigi doimo ochiq boʻlgan.

XULOSA

Shunday qilib, IX-X asrlarda Movarounnahr va Xurosonda G`aznaviylar davlati tashkil topdi. O`rta asrlar mulkchilik zamo-nining bu yirik davlatini boshqarishda hukmdor xonadon Sharqning qadimiy davlat boshqaruvi an'analariga suyanib, muntazam harbiy qism va kuchli harbiy qo`shinlarga ega bo`lgan markazlashgan boshqaruv mahkamasini tashkil qildi. O`rta asrlarning bu yirik davlati o`zining boshqaruv tizimi jihatidan shubhasiz O`rta Osiyoda yirik mulkdorlar davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyoti tari-xini o`rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Movarounnahr mustaqillikka erishib, G`aznaviylar davlatining qaror topishi va uning ravnaqida islom dini mhoniylarimng hissasi katta bo`ldi. Shu boisdan ularning obro`si oshib, poytaxt Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Shaharlarda ko`plab ibodatxonalar, shu jumladan jome' masjid, xonaqo (g`aribxona) va nomozgoh (iydi ramazon va iydi qurbon ibodatlari o`qiladigan sajdagoh) lar bino qilindi. Xuddi shu davrda musulmon Sharqidagi ilk ilmgoh madrasalardan bin Buxoro shahrida qad ko`tardi. Buxoroning bu qadimiy madrasasi shaharning Darvozayi Mansur mahallasida xon hammomining yonida joylashgan edi. Mamlakat ma'naviy hayotining asosi hisoblangan islom mafkurasiga bu davrda "ustod" deb atalgan din va ilm peshvolari rahnamolik qilardi. Keyinchalik bu nom tark etilib, din peshvolari va islom ulamolarining rahnamosi "shayxulislom" nomi bilan yanada ulug`landi. Ustoddan keyin "xdtib" lar turardi. Somoniylar islom mafkurasining rivojiga katta ahamiyat beradilar. Masjid, madrasa va xonaqolar qurish uchun maxsus joylar va ularning sarf-u xarajatlari uchun katta-katta mulklar ajratilib beriladi. Natijada diniy muassasalar tasarrufidagi erlar kengayib, yangi turdagi diniy-feodal xo`jaligi tarkib topadi.

Xullas, yurtimizda somoniylar sulolasi xukmronlik qilgan asrlar jo`shqin, voqealarga boy, namunali va saboqli davrdir. Eng muhimi, bu davrda mamlakatimizning, xalqmizning, tarixiy-madaniy taraqqiyotdagi an'ana va

tajribalarimizning naqadar mustaxkam poydevorga ega ekanligi namoyon bo`ldi. Zero, yuqorida aytilganidek, tushkunlik, qaramlik davrini boshdan kechirgan jamiyat yana yuksaklikka kutarila oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A O`zbekiston: milliy istiklol, siyosat, mafkura. T., O`zbekiston 1993
2. O`zbekiston 1993
3. Karimov I.A O`zbekiston buyuk kelajak sari. Asarlar tuplami. T., O`zbekiston. 1998
4. Karimov I.A Tarixiy xotirisiz kelajak yuk. T., Shark 1998
5. Karimov I.A Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari. T., Shark 1998
6. Bunyatov Z.M. Gosudarstvo Xorezmshaxov Anushteginidov M., Nauka 1986
7. Pyankov I.V Baktriya antichnoy traditsii, (obshie dannie o strane, nazvaniya i territorii) Dushanbe, Ds.nish. 1982
8. Ziyoev X. Z Ulugbek davlatchiligi tarixini urganish manbashunosligi. O`zbekiton tarixi 1999 yil 1-son
9. O`zbek davlatchiligi tarixi. T., Shark 2000
10. Muxammadjonov.A.R. Kadimgi Buxoro. T., Fan 1991
11. Sagdullaev A.S. Usadbi drevnoy Baktrii. T., «Fan» , 1987.
12. Sagdullaev A.S. Aminov B.. Mavlonov U, Norkulov N. o`zbekiston tarixi: davlat va jamiyat tarakkiyoti. T, «Akademiya»2000.
13. Uzbkiston tarixi. T. «Universitet», 1999.
14. 101. o`zbek xalqi davlatchiligi tarixi kontseptsiyasi. Loyixa. O`zbekiston tarixi. 1999 yil, 1 son
15. O`zbekistonning yangi tarixi. Kontseptsual — metodologik muammolar T. «Akademiya»
16. Kudratov S Markaziy Osiyo xududida ilk davlatlarning paydo bulishi Guliston, 1998.
17. G`ulomov Ya.G` Xorazmning sugorilishi tarixi. T., «Fan», 1959
18. G`ulomov Ya G`. Arxeologiya - tarix fani xizmatida. T. «Fan», 1976